

82. Katak qog'ozdag'i yuzni hisoblash

Yondosh mavzu:
devoriy rasm.

O'lchov, to'r,
yuz.




Bitta cho'pni shunday olingki,
natijada to'g'ri tenglik hosil bo'lsin.


$$2 + 3 = 5$$



1. Rassom devorga turli plitkalar bilan ushbu gulni terishni xohlaydi. Plitkaning o'lchami katak o'lchamiga teng. Unga har bir gul uchun nechta plitka kerak bo'ladi?
Butun gulning yuzi kataklarda qanchaga teng?
Har bir qismining yuzi-chi?




2. Rasmni daftaringizga kataklar bo'yicha ko'chirib chizing. Shakl ichiga tushgan butun kataklarni bo'yang. Nechta butun katak hosil bo'ldi? Yarimta kataklarni boshqa rangda bo'yang. Bu yarimta kataklardan nechta butun katak hosil qilish mumkin? Shaklning yuzi kataklarda qanchaga teng?



Shaklning yuzi ko'pincha paletka yordamida hisoblanadi.

**Paletka – kvadratlarga bo'lingan shaffof plonka.
Har bir kvadrat birlik o'lchovni o'zida aks ettiradi.**





3. Faqat sonli ifodalarni yozing va ularning qiymatlarini hisoblang. Hosil bo'lgan natijalarni kamayish tartibida joylashtiring va devor rasmi turlaridan birining nomini bilib oling.

A $108 + 107$

E $800 - 176$

I $y - 418$

K $727 - 439$

M $t + a - 52$

R $702 + 182$

S $282 + 251$

T $820 - x$

F $277 + 684$



4. Ifoda tuzing va uning qiymatini toping.

a) Hajmli suratlar muzeyida Aziz 45 ta fotosurat oldi, bu Lola olgan suratlardan 28 ta kam. Bolalar hammasi bo'lib nechta fotosurat olishgan?


b) Agar Aziz 10 ta fotosuratni, Lola esa undan 15 ta ko'p fotosuratni tanlagan bo'lsa, ular buvilariga nechta suratni jo'natganlar?



5. Agar $x = 657$, $y = 298$, $t = 357$ bo'lsa, $(x + y) - t$ ifodaning qiymatini toping.



6. Shaklni daftaringizga chizing. Butun kataklarni bir rangga, yarim kataklarni boshqa rangga bo'yang. Shaklda nechta butun kvadrat bor? Unda nechta yarim kvadrat bor? Shaklning umumiy yuzi nimaga teng?



7. Harflar o'rniliga ularning qiymatlarini qo'yib, ifodalarni hisoblang.

$$t - (235 + x) + 189, \text{ bunda } t = 800, x = 127$$

$$m + (n - 220) - 48, \text{ bunda } m = 198, n = 419$$

